

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ESHBOYEVA TURSUNTOSH SOXATMAMATOVNA

**O‘ZBEK TILIDAN FRANSUZ TILIGA TARJIMA QILINGAN
SHE‘RLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Science**

Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna

О‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan she’rlarning lingvopoetik tahlili 3

Эшбоева Турсунтош Сохатмаматовна

Лингвопоэтический анализ стихотворений, переведенных с узбекского на французский язык 25

Eshboyeva Tursuntosh Sokhatmamatovna

Linguapoetic analysis of poems translated from Uzbek into French..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ESHBOYEVA TURSUNTOSH SOXATMAMATOVNA

**O‘ZBEK TILIDAN FRANSUZ TILIGA TARJIMA QILINGAN
SHE‘RLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2642 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www. samdchi.uz hamda "ZiyoNet" axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Zoirova Aziza Ibragimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "15" may soat 10⁰⁰ da majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (61856 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "28" aprel daqi № 14 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi tarixi shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning turli bosqichlarida milliy adabiyotlar bir-birlari bilan u yoki bu darajada aloqada bo'lib, o'zaro bir-biriga ta'sir etib, yaqin munosabatga kirishadi, natijada yangi badiiy oqimlar, shakllar yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonda Sharq va G'arb badiiy tafakkur izlanishlarining o'zaro bog'liqligi, tipologik o'xshashligi, an'analar izchilligi kabi omillar hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Ikki til doirasidagi tarjimalarga oid tadqiqotlar dolzarb muammolardan biri bo'lib, xususan, o'zbek tilidagi she'rlarning fransuz tiliga tarjimalari, ularni lingvopoetik tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish masalalari asoslanganligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda, fransuz tiliga tarjima qilingan o'zbek she'rlarning tarjimalarini lingvopoetik, struktural, qiyosiy aspektlarda o'rganib chiqish tarjimashunoslarning dolzarb masalasi sifatida soha taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida fransuz va o'zbek xalqlarining asrlar davomidagi tarixiy-madaniy, ilmiy, adabiy aloqalarga bo'lgan qiziqishi o'zbek shoirlari she'rlarini fransuz tiliga tarjima qilish va ularni tadqiq etish zarurati bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday ilmiy tadqiqotlar o'zbek va fransuz adabiyoti o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq o'rganishga, shuningdek, milliy va xalqaro madaniyatlararo muloqotni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Xususan, she'riy janrning mazmuniy takomilini, uning mavzuiy guruhlarini atroflicha tadqiq qilish va boshqa shoirlar ijodiga ta'sirini o'rganish, tarjimada har bir tilning o'ziga xos leksik, semantik, sintaktik va stilistik xususiyatlari aks ettirish, tarjima she'rlarning lingvopoetik tahlilini amalga oshirish va ularni qo'shma kontekstda tahlil qilish zamonaviy til sohasining asosiy yechimlaridan hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-fan sohalarini rivojlantirish doirasida olib borilayotgan tadqiqotlarda milliy adabiyotimizning mumtoz va zamonaviy badiiy ijodini jahon bo'ylab keng targ'ib qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. She'riy tarjimalarni lingvopoetik aloqalar fenomeni sifatida ko'rib chiqish masalasi bugungi kun talabidir. "Avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalari ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi"¹. Natijada, xorijiy olimlarning lingvopoetika masalalari tadqiq etilgan bir qator izlanishlari ushbu tadqiqot mavzusi kontekstida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tovushlar simvolizmi, alliteratsiya, geminatsiya hamda qofiya ilmi bir qator ilmiy qarashlar vositasida o'rganilganiga qaramasdan, aynan o'zbek tilidagi she'rlarning fransuz tiliga qilingan tarjimalarida lingvopoetik tahlilga asoslanganligi mazkur yo'nalishda o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar hal etilmaganligi bilan izohlanadi. Shu ma'noda buyuk o'zbek adiblari lirikasi asosini tashkil etuvchi she'rlarning badiiy xususiyatlari, uslubi va fransuz tiliga

¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 87.

tarjimalarini tadqiq etish O‘zbekistonda adabiyotshunoslik fanining imkoniyatlarini ochib berishda zamonaviy yangi yo‘nalish sifatida qaraladi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosida o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosi sifatida ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunoslik maydonida lingvopoetika masalalarining tadqiqiga doir salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, badiiy nutq masalalarini lingvopoetika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi sohalar doirasida o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, filologiya ilmida lingvopoetika sohasining yuzaga kelishi ham mazkur yo‘nalishdagi yangi termin va tushunchalar doirasi kengayib borishini taqozo etadi. Bu borada o‘zbek adiblari asarlarining ijtimoiy-falsafiy, badiiy, lingvistik, lingvostilistik va lingvopoetik tadqiq etilishi, yangi metodologik tamoyil va zamonaviy mezonlar asosida ochib berilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet ellik tarjimonlardan Henri Deluy va Jean-Pierre Balpe²lar bu borada alohida e‘tiborga loyiqdir, chunki ular fransuz tilini o‘rganish va uni o‘qitishning nazariy va uslubiy asoslarini tizimli tahlil qilishni, shu jumladan o‘zbek va rus tilidagi she‘rlarni fransuz tiliga tarjimalari borasida muhim tadqiqotlar olib borishgan.

Rus va xorijlik I.Leviy, R.Yakobson, J.Munen, T.Savori, Y.Nayda³ kabi tarjimashunoslarning ishlarida lingvistik tarjima nazariyasi xususidagi masalalar

² Henri Deluy. Action Poétique N115. Poètes Ouzbeks et russes. – Paris, 1989. – 194 p.

³ Левий И. Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – 394 с.; Якобсон Р. О лингвистических аспектах перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – Москва, 1978. – С. 16-24; Mounin G. Les

o'rganilgan. Shunday bo'lsa-da, tilshunosligimizda o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan she'rlarning lingvopoetik xususiyatlari bugungi kunga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu sababli ishimizda o'zbek-fransuz she'riyatining tili uslubiy vositalarga g'oyatda boyligi va rang-barangligi kabi xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu she'rlarda personajlar nutqida uchrovchi so'zlar shoirning xalq hayotini, uning turmush tarzini, binobarin, uning kundalik hayotida qo'llanilib kelinadigan so'z va iboralarini yaxshi bilishni talab qiladi. Ishda ana shu jozibadorlikni lingvopoetik usulda tadqiq etish maqsad qilib olingan.

O'zbekistonda tarjima nazariyasiga oid o'zbek tilidan g'arb tillariga va g'arb tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilish va tarjima nazariyasining turli muammolariga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar mavjud. Xususan, G'.Salomov, Q.Musayev, Y.Po'latov, Y.Hamroyev, Q.Jo'rayev, S.Olimov, A.Tursunov, M.Xolbekov, B.Ermatov, I.Mirzayev, R.X.Shirinova, Sh.Safarov, Sh.Abdullayev va N.Xudoyberdiyeva⁴ kabi olimlar bu masalalarda izlanishlar olib borishgan. Bu tadqiqotlarda, asosan, Y.Etkind, E.Kari, L.S.Barxudarov, I.Kashkin, V.N.Komissarov, A.V.Fedorov, A.D.Shveyser⁵ nazariyalariga vobasta fikrlar bildirilganligini kuzatamiz. 1960-yillarda Y.Po'latovning "O'zbekistonda chet el adabiyoti va Mopassan novellalari tarjimasini", G'.Salomovning "Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari", L.Abdullayevaning "Rus tilidan o'zbek tiliga tarjimaning stilistik masalalari", Q.Musayevning "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimaning stilistik masalalari" mavzusida himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalarida tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillari xususida ilk fikrlar bildirilgan. Sh.Botirova "Fransuz she'riyatidan mustaqil o'qish uchun qo'llanma"si o'zbek-fransuz adabiy aloqalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, XX-XXI asr boshlarida O'zbekistonda tarjima nazariyasining

problèmes théoriques de la traduction. – Paris, 1963. – P. 8; Savory T. The Art of Translation. – London: Cape, 1968. – 191 p.; Eugene Nida. Contexts in Translating. – Amsterdam: John Benjamins, 2001. – P. 93.

⁴ Саломов Г. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1964. – 124 б.; Мусаев Қ. Инглиз тилидан ўзбек тилига бадий таржиманинг стилстик масалалари: Филол. фан. номз.... дисс. – Самарқанд, 1967. – 140 б.; Пўлатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б.; Ҳамроев Ё. Эрнест Хемингуэйнинг «Чол ва денгиз» повести таржимасида миллий колорит масаласига доир // Таржимашуносликка доир тадқиқотлар. – 1975. – Б. 191-196; Саломов Г., Қ.Жўраев., С.Олимов. Таржима санъати ва санъат таржимаси. Таржима санъати МТ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 133 б.; Турсунов А. Воссоздание характера в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1988. – 179 с.; Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи. Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 54 с.; Эрматов Б.С. Французская реалистическая новелла XIX века в переводе на узбекский язык: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 23 с.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 25 с.; Ширинова Р.Х. Диний реалияларни бадий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари. (Француз адабиётининг ўзбек тилидаги таржималари мисолида): Филол. фан. номз. дисс.... автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.; Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 299 б.; Абдуллаев Ш. Таржима асарларида фразеологизмлар семантикаси: Филол. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2006. – 21 б.; Xudoyberdiyeva N. Sh. Alisher Navoiy g'azallarining fransuzcha tarjimasida koloronimlarning stilistik konvergentsiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals.dok. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2024. – 59 b.

⁵ Эткинд Е.Г. Великие французские переводчики. В сб. "Мастерство перевода", – Москва, 1965. – С. 167; Кари Э. О переводе и переводчиках во Франции. В сб. "Мастерство перевода", – Москва, 1965. – С. 434; Бархударов Л. С. Язык и перевод. – Москва, 1975. – С. 55; Кашкин И. А. Для читателя – современника. Статьи и исследования. Изд 2-е. – Москва, 1977. – С.147; Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – Москва, 1980. – С. 27; Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). 4-е изд. – Москва, 1983. – С.107; Швейцер А. Д. Теория перевода. – Москва, 1988. – С. 35.

umumfilologik muammolariga bag'ishlangan yuzga yaqin nomzodlik va o'nga yaqin doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tili lig'aviy va grammatik birliklarining lingvopoetik tahlili masalalari" yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan she'rlarni lingvopoetik tahlil etish orqali sohaning nazariy va amaliy masalalarini yoritish, uning rivojlanish bosqichlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilidagi she'rlarning fransuz tiliga tarjimasida mazmun va ritmni saqlash hamda ijodkor ruhiyatini ifodalashda qo'llanilgan muhim uslubiy vositalarni aniqlash;

Navoiy va Boborahim Mashrab she'riy asarlarining fransuz tiliga tarjimalarida obrazlar talqini, ohang va qofiyani saqlashda foydalanilgan lingvopoetik vositalarni asoslash;

o'rta asrlar va zamonaviy shoirlar she'rlarini fransuz tiliga qilingan tarjimalarining uyg'un hamda tafovutli jihatlarini dalillash;

o'rta asrlar va zamonaviy o'zbek she'rlarini fransuz tiliga tarjima qilishda murakkablikni keltirib chiqaradigan birliklarni lingvopoetik tahlil qilish asosida ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek tilidan fransuz tiliga o'girilgan she'riy tarjimalar olingan.

Tadqiqotning predmetini A.Navoiy, B.Mashrab, X.Davron, Sh.Rahmon, R.Parfi, U.Azim va M.Yusuf she'rlari fransuzcha tarjimalarining lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiya ishi tadqiqida lingvopoetik, qiyosiy-chog'ishtirma, etimologik-statistik, kognitiv-semantik, konseptual-derivatsion, stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi she'rlarning fransuz tiliga tarjimasida mazmun va ritm saqlanishi hamda ijodkor ruhiyatini ifodalashda qo'llanilgan epitet, metafora, qiyoslashlar obrazlilik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim uslubiy vosita ekanligi aniqlangan;

Navoiy va Boborahim Mashrab she'riy asarlarining fransuz tiliga tarjimalarida obrazning genezisi, ohang va qofiyani saqlash maqsadida har bir tilga xos zooleksemalar, frazeologik birliklar, undalmalar, sinonim, antonimlar, sintaktik vositalar hamda darak, so'roq va buyruq gaplardan foydalanilganligi asoslangan;

Alisher Navoiy, Mashrab, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Usmon Azim, Muhammad Yusuf she'rlari tarjimalaridagi uyg'unlik *qush, pari* kabi leksik hamda sintaktik birliklar yordamida, tafovutlar esa, *boyo'g'li, qalandar, ko'za, yo'rgak* kabi so'zlar asosida dalillangan;

oʻrta asrlar va zamonaviy oʻzbek sheʼrlarini fransuz tiliga tarjima qilishda frazeologik hamda mental boʻyoqqa ega boʻlgan birliklar va sintaktik parallelizmlar murakkablikni keltirib chiqarishi lingvopoetik tahlil asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oʻzbek shoirlari sheʼrlarining fransuz tiliga tarjimalari yordamida sheʼriyat rivojida shoirlarning tutgan oʻrni maxsus oʻrganilib, ilmiy-nazariy xulosalarga kelinganligi adabiy aloqalar doirasidagi tadqiqotlar bazasini toʻldiradi hamda sheʼrlar tarjimasida lingvopoetik tahlilni oʻrganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga manba boʻlib xizmat qiladi;

mumtoz va zamonaviy sheʼriyatdagi obrazlar tarjimalariga doir kuzatishlar ijodkor olamini adabiy jarayon rivoji misolida har xil badiiy usul bilan boyitib boradigan alohida tizim sifatida koʻrib chiqishga, mumtoz va zamonaviy shoirlar sheʼrlari tarjimalarining badiiy-estetik tamoyillari tizimini qiyosan oʻrganishga yordam berilishi dalillangan;

tadqiqot jarayonida toʻplangan materiallar Alisher Navoiy, Mashrab, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf hamda Usmon Azim sheʼrlari tarjimalarining namunalari boʻlib, ularning tarjima jarayonidagi lingvopoetik xususiyatlarini oʻrganishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi XX asr oʻzbek sheʼriyati vakillari ijodidagi sheʼrlarning fransuz tiliga tarjimalarini qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilganligi, adabiyotshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib, yangi qarashlar ishlab chiqilganligi, nazariy tushunchalarga ilmiy tavsif berishda oʻzbek shoirlarining fransuz tiliga tarjimalarini lingvopoetik tahlili sheʼriy matndagi lisoniy birliklar ishlashining oʻziga xos xususiyatlari va ularning oʻquvchiga taʼsiri haqidagi zamonaviy tasavvurlarini kengaytirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy va mumtoz oʻzbek va fransuz sheʼriyati nazariyasini yaratishda nutqiy tuzilmalarga doir ilmiy nazariy qarashlarni yangi maʼlumotlar bilan boyitish, bu yoʻnalishlarda bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, xususan, tarjima matnlarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning koʻrsatkichlarini belgilashda nazariy asos vazifasini oʻtashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan oliy oʻquv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir turli matodik tavsifanomalarni tuzish, maxsus lugʻatlar va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari “Tili oʻrganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi”, “Jahon adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiy aloqalar”, “Tarjima amaliyoti”, “Tarjima nazariyasi” va “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlarga oid maʼruzalar uchun zarur manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan sheʼrlarning lingvopoetik tahlili boʻyicha qoʻlga kiritilgan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

oʻzbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan Alisher Navoiy, Mashrab, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Usmon Azim, Muhammad Yusuf

she'rlari tarjimalaridagi uyg'unlik *qush, pari* kabi leksik hamda sintaktik birliklar yordamida, tafovutlar esa, *boyo'g'li, qalandar, ko'za, yo'rgak* kabi so'zlar asosidagi nazariy qarashlaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasini amalga oshirishda va o'quv jarayonida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 27-sentabrdagi 2012/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida xorijiy tillarni o'qitish borasidagi nazariyalarning takomillashuviga erishilgan va lingvopoetik tahlil masalalarining tadqiqi, badiiy nutq va lingvopragmatika kabi tilshunoslik fanini rivojlantirishdagi muhim jihatlari ochib berilgan;

Navoiy va Boborahim Mashrab she'riy asarlarining fransuz tiliga tarjimalarida obrazning genezisi, ohang va qofiyani saqlash maqsadida har bir tilga xos zooleksemalar, frazeologik birliklar, undalmalar, sinonim, antonimlar, sintaktik vositalar hamda darak, so'roq va buyruq gaplardan foydalanilganligi to'g'risidagi qarashlardan O'zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 7-martdagi 98/1-sonli dalolatnomasi). Natijada, amaliyotga qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, monografiyalarning hamda terminologik tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

o'zbek tilidagi she'rlarning fransuz tiliga tarjimasida mazmun va ritm saqlanishi hamda ijodkor ruhiyatini ifodalashda qo'llanilgan epitet, metafora, qiyoslashlar obrazlilik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim uslubiy vosita ekanligi to'g'risidagi xulosalardan Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi adabiyot sohasidagi madaniy aloqalar dasturida foydalanilgan ("Alliance Française de Samarcande" Samarqand shahar Fransuz tili ittifoqining 2024-yil 29-fevraldagi №11-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan she'rlarning janr xususiyatlarini alohida mavzu sifatida o'rganish imkoniyati yaratilgan va jahon adabiyotidagi badiiy talqinga xos xususiyatlar haqidagi ilmiy tasavvur va tushunchalarni boyitishga yordam bergan;

o'rta asrlar va zamonaviy o'zbek she'rlarini fransuz tiliga tarjima qilishda frazeologik hamda mental bo'yoqqa ega bo'lgan birliklar va sintaktik parallelizmlar murakkablikni keltirib chiqarishi lingvopoetik tahlil asosida aniqlangan nazariy xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida bir qator teleko'rsatuvlarda, xususan, siyosiy, ijtimoiy, ommabop ko'rsatuvlarda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-dekabrda №01-07/392-son ma'lumotnomasi). Natijada, bugungi kun o'zbek tarjimachiligi va uning taraqqiyot tendensiyalari, shu bilan birga badiiy tarjima va unda milliy o'ziga xoslikning

ifodalanishi haqida ma'lumotlar berilgan hamda teletomoshabinlarning qiyosiy adabiyotshunoslik borasida bilimlari yangi ilmiy manbalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib, muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 144 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**She'riy tarjimaning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda tarjima, xususan, she'riy tarjimaning nazariy tadqiqi, o'zbek she'riyatidan fransuz tiliga o'girilgan tarjimalar tarixi va lingvopoetika masalasining o'rganilish muammolari haqida fikr yuritiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tarjima" so'ziga shunday izoh berilgan: *Tarjima* – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra, tafsil, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan og'zaki turi hozirda ham saqlangan⁶.

Tarjima so'zining etimologiyasi – forscha "tarzabon" so'zidan arabiy lashib, o'zgargan ("tarzabon" – chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi) degan ma'nolarni anglatadi. Arab tilidagi "tarjimon" shakli qabul qilingan bo'lib, undan "tarjima" yoki "tarjuma" hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani "*chevirish*", "*o'tkazish*", "*qaytarish*", "*ag'darish*", "*o'girish*" singari atamalar bilan ifoda etadilar. Ko'p yillar davomida "*tarjima*" *sharh, tavsif, bayon qilish, tushuntirish* ma'nolarida ham qo'llanib kelingan.⁷

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-том. – Тошкент: Давлат илмий нашрети, 2004. – Б. 272.

⁷ Комилов Н. Бу қадимий санъат. "Таржима санъати" мақолалар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 55-61.

Tarjima o‘zining janriy-stilistik xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Biri sohaviy (ilmiy, texnik, publisistik va hokazo) tarjima turi bo‘lsa, ikkinchisi badiiy (she‘riy, nasriy) tarjimadir. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot namunalaridagi kommunikativ ta‘sirning yorqin ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan badiiy-estetik zavqni uzatish sanaladi⁸. Badiiy tarjima, o‘z navbatida, she‘riy va nasriy tarjima turlariga bo‘linadi.

She‘riy tarjimada asliyatning poetik parametrlari hisoblangan shakl (qofiya, vazn, turoq, hijolar soni, ohangdorlik, musiqiylik) va mazmunga (timsoliylik, leksik resurslar va stilistik figuralar) adekvat yoki ekvivalentlik darajasida yaqinlasha olish, muallif fikr tuyg‘ularini, maqsad va g‘oyalarini qayta in‘ikos etilishini ta‘minlaydi⁹.

Rus olimi V.Vinogradovning fikricha, she‘riy tarjima asliyatning mukammal identifikatsiyasi darajasida baholana olmaydi, chunki she‘riy asarda vertikal kontekst turlari bo‘lgan allyuziya, realiya, ramzlar, ekvivalentlik tarjima saviyasini tushiradi. Shu bois, adekvatlik va ekvivalentlikka nisbiy hodisa sifatida qarab, bunday nisbiylikning bir necha darajalarini ko‘rsatib beradi¹⁰.

Professor Q. Yo‘ldoshev: “Istiqlol butun o‘zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o‘zbekka yaqinlashtirgan bo‘lsa, istiqlol she‘riyati har bir o‘zbekni o‘z ko‘ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho‘qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi”, – degan haqli fikrlarini aytgan edi¹¹. Darhaqiqat, bu kabi uslubiy-shakliy izlanishlar U.Azim, Sh.Rahmon, R.Parfi, X.Davron, Muhammad Yusuf singari shoirlar ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda.

Tarjimashunos olim J.Sharipov she‘riy tarjimaga quyidagicha ta‘rif beradi: “Har qanday shoir ham she‘riy asarlarni tarjima qilolmaydi, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini tarjima qilish juda ham murakkab ish. Tarjimon-shoir she‘riy asar mazmuni, uslubi, obrazlarini to‘g‘ri aks ettirish bilan birga, undagi vazn, qofiyalarni ham aniq bera bilishi kerak. Bu she‘riy asar tarjimasining asosiy shartlaridan biridir”¹². Eng yaxshi she‘riy tarjima asliyatga mos tarjimadir.

Demak, tarjimada ekvivalentlik, ya‘ni tarjimaning faqat shakliy tomondangina munosib bo‘lishi yetarli emas, balki asarning tag matnidagi ma‘nodorlik, maqsad ham o‘z ifodasini topgan bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek tarjimashunos olimlari G‘aybulla Salomov va Najmiddin Komilovlar she‘riy tarjimaga yuqori baho berib, shunday ta‘rif berishadi: “Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she‘riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo‘ladi. Mana shunday mashaqqatlar bilan xalq mulkiga aylanadigan tarjima asarlar san‘at darajasiga ko‘tariladi”¹³.

⁸ Ўша манба. – Б. 17.

⁹ Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 119.

¹⁰ Виноградов В. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – Москва: Издательство института общего и среднего образования РАО, 2001. – С. 53.

¹¹ Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 191.

¹² Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. – O‘zbekiston SSR: Fan, 1965. – B. 229.

¹³ Xolbekova B. She‘riy tarjima mezoni // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2009. 11-son. – B. 159.

Olimlar she'riyatni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni, masalan, madaniy tushunchalarni yoki lingvistik farqlarni tarjima qilishdagi murakkabliklarni o'rganib chiqdilar. XV asr shoiri Alisher Navoiyning o'zbek-fors tillaridagi asarlari tarjimalarini o'zbek adabiyotidagi she'riy tarjimaning eng mashhur namunalari deyish mumkin. Uning asarlari turli tillarga, jumladan, fransuz tiliga ham tarjima qilingan. Fransuz adabiyotshunosligida she'riy tarjimaning kelib chiqish tarixi Sh.Bodler, Artur Rembo, Pol Verlen kabi ijodkorlarning mumtoz she'riy asarlarni tarjima qilishi bilan bog'lanadi.

Taniqli fransuz shoiri Bualo ijodi o'z davrida fransuz adabiyoti va san'atiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning "She'riy san'at" poemasi hozir ham adabiyotda o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu poemani shoir Jamol Kamol o'zbek tiliga o'girdi¹⁴. O'zbek-fransuz adabiy aloqalarida I.Mirzayev, M.Xolbekov va Sh.Botirovalarning tadqiqotlari tahsinga sazovordir. O'tgan asrning so'nggi yillarida fransiyalik ijodkorlarning ham o'zbek she'riyatiga qiziqishi ortdi. Shu o'rinda, Parijda chiqadigan e'tiborli jurnallardan biri "Action poétique" ("She'riy harakat")ning bu boradagi faoliyatini alohida ta'riflab o'tish lozim. 1989-1990-yillar ushbu jurnal o'zining ikki sonini o'zbek she'riyatiga bag'ishladi. 1990-yil jurnalning "O'zbek g'azali" (Action poétique: Poètes ouzbeks et Russes.-Paris, 1989, №115) sarlavhasi ostida maxsus soni bosilib chiqdi. Ushbu majmuada o'zbek she'riyati vakillaridan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi shoirlar ijodidan namunalari berilgan. She'rlarni fransuz tiliga talantli tarjimon va shoir Jan-Pyer Balp va Henri Deluy yuksak mahorat bilan o'giran.

2007-yil Fransiyaning Brest shahrida joylashgan "Georama" nashriyoti Navoiy g'azallarining yana bir tarjima to'plamini nashr qildi. Kitob ikki jonboz tashkilotchi filolog, tarjimon Murodxon Ergashev hamda ko'p yillardan buyon Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarning adabiyoti va san'atini tadqiq etib kelayotgan fransuz sayohatchi san'atshunosi Jan Jak Gate ijodiy hamkorligining mahsuli sifatida dunyo yuzini ko'rdi¹⁵.

R.Yakobson lingvopoetika fanining asoschilaridan biri sifatida soha rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Olimning bu boradagi nazariy qarashlari, asosan, uning "Poetika masalalari" asarida jamlangan¹⁶. Shubhasiz, jahon tilshunosligida stilistika va lingvopoetikaga asos solgan tadqiqotchilardan biri akademik V.Vinogradovdir. V.Vinogradov "Stilistika. She'r nutqi nazariyasi", "Poetika" asarlarida dastlab lingvostilistika va lingvopoetikaga ta'rif berib, ularning o'zaro farqlarini shunday izohladi: "Tadqiqotning hech bo'lmaganda uch xil doirasini chegaralash lozim bo'ladi. Bu, birinchidan, "tizimlar tizimi" sifatidagi til stilistikasi yoki struktural stilistika, ikkinchidan, nutq stilistikasi, ya'ni tildan ijtimoiy foydalanishning turli ko'rinish va holatlari, uchinchidan, badiiy adabiyot

¹⁴ She'riy san'at poema. Ruschadan J. Kamol tarjimasi. – Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti, 1977. №1. – B. 6.

¹⁵ Alisher Navoiy. Gazels. Traductions: M.Ergashev, J.-J. Gaté. – Brest: Georama, 2007. – P. 72.

¹⁶ Якобсон Р. О лингвистических аспектах перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – Москва, 1978. – С. 55.

stilistikasi. Poetik nutq nazariyasi va tarixi hamda poetika aynan keyingi qatoriga kiradi”¹⁷.

I.Mirzayev esa lingvopoetika filologiyaning yaxlitligini tiklashi mumkin bo‘lgan soha deb e’tirof etilayotganini, bu sohadagi tadqiqotlarni ko‘paytirish va kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi: “Filologiyaning yaxlitligini tiklash tilshunoslik, adabiyotshunoslik, she’rshunoslik va boshqalarni aslo inkor etmaydi, aksincha, ular qo‘lga kiritgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etadi va shu orqali, bir tomondan, o‘quvchining mazkur fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi va ikkinchi tomondan, unda haqiqiy filolog ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunga erishishning yagona yo‘li esa matnning filologik (lingvopoetik) tahlilidir”¹⁸.

Badiiy adabiyotning estetik ta’siri masalalari bilan keyinchalik XX asrning atoqli olimlaridan biri O.Axmanova, uning shogirdlari V.Zadornova va A.Lipgartlar shug‘ullanib, lingvopoetikaning alohida filologik soha sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar. V.Zadornova doktorlik dissertatsiyasida lingvopoetik tahlil metodologiyasi va uning badiiy ijod namunalari stilistik tavsifiga oid kuzatishlardan farqli masalalarini o‘rgangan. Uning fikricha, “Matnning lingvopoetik tahlili u yoki bu stilistik usullarni aniqlash emas, balki badiiy asar ijod namunasi bo‘lgan estetik ta’sirini izohlashga yo‘naltirilgan. Matnning lingvopoetik jihatdan o‘rganilishi tilning u yoki bu birligini shunchaki aniqlashga qaratilgan emas, balki badiiy asar ko‘rsatadigan estetik ta’sirni so‘z yordamida izohlashga yo‘naltirilgan”¹⁹. Umuman olganda, V.Zadornova lingvopoetikaning predmetini badiiy asarda yozuvchining estetik ta’sir o‘tkazishini ta’minlaydigan, g‘oyaviy-badiiy maslagini yuzaga chiqarishga ko‘maklashadigan til vositalarining yig‘indisi sifatida baholagan.

Lingvopoetika nazariyasiga oid qarashlar o‘z aksini topgan eng keyingi manbalardan biri A.Lipgartning “Lingvopoetika asoslari” asaridir. Lingvistika va poetikaning oralig‘ida yuzaga kelgan lingvopoetika sohasining predmeti, maqsad va vazifalari tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu asar chuqur tahlillarga tayanib yozilgan. Jahonning turli tillarida chop etilgan mavzuga daxldor 200 dan ortiq ilmiy manbalarning o‘rganib chiqilganligi, V.Vinogradov, V.Tomashevskiy, A.Potebnya, R.Yakobson, O.Axmanova, I.Galperin, M.Baxtin, V.Zadornova singari taniqli rus filolog olimlarining qarashlari tahlil uchun asos bo‘lganligi ham shundan dalolatdir.

O‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida badiiy asar matnini lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Xususan, N.Mahmudovning Oybek she’riyati va Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasi tahlil etilgan ishlarini ta’kidlash o‘rinli²⁰. Mustaqillik yillarida o‘zbek badiiy matni muammolariga, xususan, uning

¹⁷ Виноградов В.В. Стилистика теория поэтической речи. Поэтика. – Москва, 1969. – С.10.

¹⁸ Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 22-28.

¹⁹ Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Автореферат дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 1992. – 41 с.

²⁰ Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 115 б.

lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan bir necha dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiyalar nashr etildi. I.Mirzayevning "She'riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari", S.Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi", M.Yoqubbekovanning "O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari", M.Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyalari, M.Yo'ldoshevning "Cho'lponning badiiy til mahorati", G.Muhammadjonovanning "80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi", D.Shodiyevanning "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi", D.Jamoliddinovanning "Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyalari, M.Muhiddinov va S.Karimovlarning "G'afur G'ulomning poetik mahorati", S.Umirovanning "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik" monografiyalari shular jumlasidandir²¹. Ilmiy kuzatishlarning bu bosqichida lingvopoetik tadqiqotlar badiiy matn bilan shug'ullanuvchi olimlarning diqqat markaziga ko'chdi. I.Mirzayevning "She'riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari" nomli doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishdagi dastlabki yirik ishlardan biridir. Shuningdek, olimning "Qofiya mazmuni shakllanishining leksik va morfologik vositalari", "Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'rni", "Lingvopoetik tahlil filolog-ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashning birlamchi omili ekanligi haqida", "Lingvopoetika: yuzaga kelishi, muammo va yechimlari" asarlarida ham bevosita lingvopoetikaning dolzarb muammolari tadqiq etilgan²².

Adabiy matnlar lingvopoetikasiga bag'ishlangan bir qator nomzodlik dissertatsiyalarida poetika va estetikaning kesishuvidan yuzaga kelgan badiiy matnning lingvopoetik tahlili keng qamrovli va murakkab tushuncha ekanligi, adabiy matnda kommunikativ-estetik vazifani bajaradigan individual til tizimi uning predmeti hisoblanishi haqida ta'kidlab o'tilgan²³.

²¹ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс.... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 7 с.; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. доктори дисс. ... – Тошкент, 1994. – 292 б.; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.доктори дисс. ... автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. доктори дисс. ... – Тошкент, 2008. – 313 б.; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида): Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бoshлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.; Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез birlikларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2009. – 22 б.; Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғулomнинг поэтик маҳорати. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2003. – 127 б.

²² Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 22-28; Мирзаев И.К. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы. – Ташкент: Фан, 1990. – 132 с.; Мирзаев И.К. Лингвопоэтик таҳлил филолог-ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бirlamchi омилли еканлиги ҳақида / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. III том. – Тошкент: ЎЗМУ нашри, 2006. – Б. 81-83; Мирзаев И.К. Лингвопоэтика: юзага келиши, муammo ва ечимлари / Лингвопоэтика, структур филология ва когнитив таълим муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 232 б.

²³ Якуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. доктори дисс. ... автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.

Ishning ikkinchi bobi “**Fransuz tiliga tarjima qilingan o‘zbek mumtoz she’rlarning lingvopoetik tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, unda badiiy tarjima lingvopoetikaning o‘rganish obyekti sifatida, Alisher Navoiy poetikasi va Boborahim Mashrab so‘z qo‘llash mahoratining fransuzcha tarjimalaridagi badiiy ifodasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Badiiy matn tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu tarjimon tomonidan badiiy uslub va uning o‘ziga xos jihatlariga jiddiy e’tibor qaratishidir. Badiiy matnning uslubi haqida so‘z yuritilganda, stilistika va uning til sathlarida namoyon bo‘lish jarayonlari e’tiborni tortadi. Odatda, tarjimon badiiy matn uslubiga xos fonetika, leksika, frazeologiya, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksisning stilistik imkoniyatlarini e’tiborga olishi lozim. Shunga ko‘ra, tarjima jarayonida asliyat va tarjima matnlarining turli sathlarga xos uslubiy jihatlari aks etishiga urg‘u beriladi.

She’riyat tarjimasini bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etishda quyidagi tarjima usullari samarali hisoblanadi:

Fonemik tarjimada asliyat tilidagi ohangni tarjima tilida qayta yaratishga, shuningdek, bir vaqtning o‘zida ma’noni to‘g‘ri yetkazish maqsad qilinadi;

so‘zma-so‘z tarjimada tarjimon asliyatning ma’nosi va sintaktik tuzilishini o‘zgartirish yo‘li bilan she’riy qatorlarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga e’tibor qaratadi;

satrma-satr tarjimada asosiy e’tibor asliyat tilidagi satrning o‘lchami va bo‘g‘inlar sonini qayta yaratishga harakat qilinadi;

nazmdan nasrga tarjimada nazmiy shaklda yozilgan she’riy asar nasriy shaklga o‘zgartirib tarjima qilinadi;

qofiyali tarjimada asosiy e’tibor satrlar o‘lchami va qofiyasini qayta yaratishga qaratiladi;

qofiyasiz tarjimada, asosan, asliyat matnidagi she’riy ma’no va mazmun qayta yaratiladi. Tarjimon she’rning asosini saqlab qoladi, shu bilan bir qatorda asliyatdagi matndan faqat sarlavhadan boshqa hech narsa saqlanmaydigan yangi she’r yaratilishiga olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, yozuvchining yo‘nalishi, janr xususiyatidan qat’iy nazar har qanday badiiy asar tilida so‘zga munosabat, so‘z tanlash va so‘z qo‘llash mahorati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zotan, aynan so‘zlarni, umuman, til vositalarini qo‘llashda yozuvchining o‘ziga xos uslubi namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur bobda mumtoz she’riyatimizning yirik namoyondalari Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari ishimizda tahlilga tortilgan bo‘lib, bunda shoirlarimizning so‘z tanlash va so‘z qo‘llash mahoratlari alohida tahlil qilingan.

O‘zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog‘onaga ko‘targan ulug‘ iste’dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o‘z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyondalari safidan faxrli o‘rin egallaydi. Sharq she’riyatida fransuz adabiyoti uchun u qadar xos bo‘lmagan ma’noning haddan tashqari serqirraligi, nihoyatda boyligi, kinoya va majoz kuchliligi, ishoralarga o‘ta moyillik va so‘zning serma’no jilolarga egaligi mavjud. Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini fransuz

tiliga ko'ngildagidek tarjima qilishga erishish uchun, shubhasizki, fransuz adabiy jarayonida, adabiyotshunosligida sharq so'z san'ati o'ziga xosliklari haqida yetarlicha tasavvurlar shakllangan bo'lishi kerak. Shunga qaramasdan, fransuz tarjimonlari Navoiy asarlari badiiyatini imkon qadar qayta yaratish va tatbiq etishga intilganlar. Navoiy asarlarini boshqa tillarga to'la shirasi, ohangi, g'oyasi-yu mazmuni bilan tarjima qilinishi avval tarjimonning o'zi shoirni qanday tushunganligiga, qolaversa, tushuntira olish qobiliyatiga, ya'ni qalami kuchiga bog'liq. Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 567 yilligi arafasida Fransiyadagi o'zbek mumtoz she'riyatining ixlosmandlari "Editions Georama" nashriyot uyidan ajoyib sovg'a oldilar – "Navoiy g'azallari" to'plami fransuz tilida nashr etildi.

Tarjimon M.Ergashev va J.J.Gate tomonidan A.Navoiyning Mukammal asarlar to'plami, to'rtinchi tomidan 30 ta g'azal saralab olindi va "Gazels"ga joylandi. Quyida Navoiyning fransuz tiliga tarjima qilingan bir g'azali tahlilini keltirib o'tamiz:

Asliyat:

*Ul pariypaykarki, hayron bo'lmish ins-u jon anga
Kimki, hayroni emas, men telbamen hayron anga.²⁴*

Pari so'zi mumtoz adabiyotimizda chiroyli, go'zal yor timsolini namoyon qiluvchi obraz sanaladi. Navoiy g'azallarida *pari* so'zi *paripaykar*, *parivash*, *pariro'y*, *huri pariypaykar*, *pariy*, *pari-yu hur*, *huri pariyzodim* shakllarida qo'llanadi. Ya'ni Navoiyning bu so'zni qo'llashdan badiiy maqsadi yor timsolini barchadan yuqori qo'yish. Yor qiyos etilganda, unga o'xshashi topilmaydi. Navoiy g'azallarida afsonaviy shaxs nomlari ichida *pari* leksemasining qo'llanish chastotasi ancha yuqori. *Pari* so'zi qo'llangan baytlarda devona va telba singari shaxsning ruhiy holati bilan bog'liq belgining substantlashishi hisobiga ifoda topgan, shuningdek, tahlil etilayotgan leksema bilan jinsiy oppozitsiyadagi shaxs otlari ham ifoda etiladi.

Tarjimasi:

*Sa beauté féerique
La beauté féerique
A surpris bien des hommes aussi bien que des djinns
Et qui n'est pas surpris me surprend follement²⁵*

tarzida fransuz tiliga tarjima qilindi. Bu tarjimada qo'llangan so'zlarning poetik xususiyati haqida aytib o'tsak, "beauté féerique" birikmasi fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda "sehrli go'zallik" tarzida tarjima qilinadi. Biz yuqorida badiiy jihatdan tahlilga tortgan "paripaykar" so'zi fransuz tiliga shu tarzda tarjima qilingan. Navoiy g'azallarida "ins-u jon" degan birlik qo'llangan. Bu birlikning tarjimasi "jamiki insonlar" ma'nosida qo'llangan. Bu birikma ham to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmagani bois, "des hommes aussi bien que des djinns" tarzida tarjima qilingan. Bu birikmadan ko'zlangan poetik maqsad, turkiychada qo'llangan "ins-u jon" birligini badiiy-g'oyaviy jihatdan ochib berishdir.

²⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. IV jild. – Toshkent, 1989. – B. 8.

²⁵ Alicher Navoi. Gazels et autres poèmes. – Paris: Orphée/La Différence, 1991. – P.77.

Fransuzcha varianti tarjima qilinganda esa, “insonlar ham, jinslar ham” tarzida muvofiqlashgan.

Alisher Navoiyning fransuz tiliga tarjima qilingan g‘azallarida zooleksika turli badiiy maqsadlarni ochib berishga xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval:

“Anga” radifli g‘azallarida zoonemlar tahlili

G‘azal matnida	Izoh	Tarjimada
Parvona	Shu‘la yoki chiroq atrofida aylanuvchi tun kapalagi.	le papillon(kapalak)
Chug‘z	Boyo‘g‘li, dunyodagi eng keng tarqalgan quruqlikdagi qush turi. Adabiyotda keng qo‘llaniladigan obraz sanaladi.	le coucou (kuku)
Bulbul	Sayroqi qush. Ko‘pincha oshiqqa nisbat beriladi.	Le rossignol
Samandar	Afsonaga ko‘ra, go‘yo o‘t ichida tug‘iladigan va o‘tda yashaydigan maxluq.	une salamandre(salamandr)

Ayniqsa, qardosh bo‘lmagan fransuz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning ifodalanishi va tarjimada ochib berilishi bu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Hazrat Alisher Navoiyning “Deyin” nomli mashhur g‘azali M.Ergashev tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan. Tarjimalarga nazar solsangiz, filolog, tarjimon M.Ergashev g‘azalning umumiy g‘oyasini berish maqsadida o‘z tilida turli ekvivalentlar qidirganligi va tinimsiz izlanganligini sezishimiz mumkin. Tarjimon aslyatni o‘zi tushunib olishi bilan birga, bu tushunchalarni o‘quvchilar ongiga singdirishning yo‘lini ham izlashi kerak. Badiiy tarjima, ayniqsa, she‘riy tarjima, tarjimondan g‘azalni mohirona tarjima qilishni talab qiladi. Yuqorida takidlangan tarjimon ham buning uddasidan chiqqan. Tarjimon tarjima qilayotgan tilni, shu til egalarining urf-odatlarini, tarixi va madaniyatini chuqur anglagan bo‘lishi kerak. Tarjimon tarjima qilayotgan g‘azalning ma‘nosini o‘zbek tilida tushungandan keyin, fransuz tiliga tarjima qilishda so‘zlarni ma‘no jihatidan o‘z o‘rnida qo‘llashga qiynalmaydi. A.Navoiyning “Deyin” g‘azali misolida ko‘rib chiqamiz:

*Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qattiq dardlar aro vasli davosinmu deyin.*

M.Ergashev tarjimasi fransuz tilida:

*La douleur de l’amour puis de la désunion,
Mais l’union avec elle, qui fut ma guérison, dois-je les direz?*

Ko‘rib turganimizdek, tarjimon shoirning sevgilisini tanqid qilmagan. Ular shoirning muhabbat falsafasini mamnun tarjima qilishgan: Har ikki tilda ham sevgi zavq, sevgi azobdir, deb ta‘rif beradi. Fransuz tilida tarjimon “sevgi azobdir” – “la douleur de l’amour” iborasi bilan ifodalagan.

Fransuz tarjimonlari Navoiyshunoslar bilan hamkorlikda ish yuritishlari zarur. Shundagina Navoiy badiiyatini to‘laligicha chet tilida targ‘ib etish mumkin²⁶.

